

**Sharq olimlarining bola tarbiyasida oilaviy muhitning o'rni yuzasidan
nazariy tahlillari**

**Theoretical analysis of Oriental scientists on the role of the family
environment in child education**

**Теоретический анализ ученых-востоковедов о роли семейного
окружения в воспитании ребенка**

Fariza XAMIDOVA

O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

E-mail: xamidovafariza@gmail.com

***Abstract:** A human child enters into social relations for the first time in the family in which he was born and raised. Its socialization, first of all, takes place in the system of interpersonal relations in its own family. The people who enter into an early social relationship with him are: his parents, his brother and other members of his family. It is important that the child matures as a person in the future and matures as a mature person, and in finding his place in life what kind of family he was brought up in, what psychological climate prevailed in the family, how his interaction with his own parents took place. Therefore, from the very beginning of the history of human culture, special attention has been paid to interpersonal relationships in the family, especially in it, the interaction of parents and children and children. We can see that this topic has a long past, on the example of the oral creativity of almost all nations.*

***Аннотация:** Человеческий ребенок впервые вступает в социальные отношения в семье, в которой он родился и вырос. Его социализация, прежде всего, происходит в системе межличностных отношений в его собственной семье. Люди, которые вступают с ним в ранние социальные отношения, это: его родители, его брат и другие члены его семьи. Важно, чтобы ребенок в будущем вырос как личность и возмужал как зрелый человек, а при поиске*

своего места в жизни - в какой семье он воспитывался, какой психологический климат царил в семье, как проходило его взаимодействие с собственными родителями. Поэтому с самого начала истории человеческой культуры особое внимание уделялось межличностным отношениям в семье, особенно взаимодействию родителей и детей и самих детей. Мы видим, что эта тема имеет давнее прошлое.

***Annotatsiya:** Inson bolasi o'zi tug'ilib o'sgan oilasida ilk bor ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Uning ijtimoiylashuvi, avvalo, o'z oilasidagi shaxslararo munosabatlar tizimida amalga oshadi. U bilan dastlabki ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi odamlar: uning ota-onasi, aka-opasi va oilasidagi boshqa a'zolari. Bolaning kelajakda shaxs sifatida shakllanib, yetuk inson bo'lib kamol topishi hamda hayotda o'z o'rnini topib ketishida uning qanday oilada tarbiyalanganligi, oilada qanday psixologik iqlim hukm surganligi, o'z ota-onasi bilan bo'lgan o'zaro munosabatlarining qanday tarzda kechganligi muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham insoniyat madaniyati tarixining ilk davrlaridanoq oiladagi shaxslararo munosabatlarga, ayniqsa, unda ota-ona va farzandlar hamda bolalarning o'zaro munosabatlariga alohida e'tibor berib kelingan. Bu mavzuning uzoq o'tmishga ega ekanligini biz deyarli barcha millat og'zaki ijodiyoti misolida ko'rishimiz mumkin.*

Ma'lumki, Sharqda yoshlarga ta'lim va tarbiya berish qadimiy an'analardan hisoblanadi. Xalqimizning yosh avlod tarbiyasiga naqadar e'tibor berishini ko'rsatuvchi turli-tuman naqlar, xalq so'zlari, ertaklar, maqollarning asrlar osha to'planib kelganligini ham alohida qayd etish o'rinlidir. Bu maqollar, hikmatli so'zlar qadim-qadimdan ota-bobolarimiz yosh avlodni ruhan va jismonan barkamol bo'lib ulg'ayishiga katta e'tibor qaratganliklariga yaqqol misoldir.

Inson tarbiyasi hamma zamonlarda ham eng dolzarb masala bo'lib kelgan. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Baxt-saodatga yo'lovchi bilim"), Kaykovusning "Qobusnoma", Muslihiddin Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston",

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” (“Ko’ngillarning sevgani”, “Hayrat ul-abror”) (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”), Gulhaniyning “Zarbulmasal” kabi asarlari asrlar mobaynida farzandlar tarbiyasida dasturulamal vazifasini o’tib kelmoqda. Bu asarlar necha-necha avlodga poklik, rostgo’ylik, mardlik fazilatlarini singdirib kelayotgani sir emas.

Sharq mutafakkirlari ta’limotlarini g’oyaviy jihatdan birlashtirgan yagona asos shuki, ular o’z asarlarida shaxs tarbiyasi va shakllanishida oilaning o’rni, ota-ona hamda yaqin kishilarning yetakchi va tarbiyaviy funksiyasiga alohida e’tibor berganlar. Odamlarning o’zaro munosabatlarida namoyon bo’ladigan yuksak fazilatlar, avvalo oilada tashkil topadi., rivojlanadi va avloddan-avlodga uzatiladi.

Islom dinining muqaddas kitobi hisoblangan. Qur’oni Karim va Hadisi sharaflarda ham yoshlar tarbiyasi, odob-axloq, vijdon, iymon va e’tiqod to’g’risida g’oyat qimmatli fikr-mulohazalar bildiriladi. Xususan, muhim fikrlar bayon etiladi. Islom ilmida har qanday zararli xatti-harakat uchun jazo muqarrarligi ta’kidlanadi. Umuman, oilaning va oiladagi o’zaro munosabatlarning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’siri masalasiga oid qimmatli fikrlar hamda bu boradagi amaliy ko’rsatmalar Sharq mutafakkirlarining falsafiy-etik va ijtimoiy-psixologik qarashlarida o’zining munosib aksini topgan.

Abu Nasr Farobiy (870-950) va Abu Rayhon Beruniy (973-1048)larning oilaviy munosabatlar yuzasidan qarashlari alohida e’tiborga loyiq.

Farobiyning inson kamoloti, baxti, ta’lim va tarbiyasi. Axloqi va dinga munosabati haqidagi qarashlari umumfalsafiy qarashlar va tushuntirishlardan iborat o’git bo’lsa, Beruniyning “Mineraqlogiya”, “O’tgan avlodlar obidalari” kabi asarlarida inson shaxsi, uning kamoloti, aql-idrokikabilarga ta’rif beriladi. Masalan, Beruniy o’zining “Mineralogiya” asarida bo’lajak ota-onaning farzand oldidagi mas’uliyati haqida, onaning homiladorlik paytidan homilasiga be’tiborni kuchaytirish, unga yumshoq munosabatda bo’lish va shu paytdan e’tiboran uni tarbiyalab borishni uqtirib o’tadi. Bolani tarbiyalashda ota-ona bir xil talab va maqsad qo’ymog’i lozimligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, Beruniy bola tabiat in’om etadigan chiroyga ega bo’lishi va

sog'lom, baquvvat tug'ilishi uchun ona qornidayoq zamin tayyorlanishi lozimligi haqida to'xtalib o'tadi. Bola qiyofasi, ya'ni uning tashqi tuzilishi go'zal bo'lishi uchun onani e'zozlab, ranjitmay parvarish qilish zarurligi, bolaning ichki ma'naviy go'zalligiga esa u tug'ilgandan so'ng tarbiya orqali erishilishi hamda unda xulq-odobni tarbiyalash uchun zarur muhit va tegishli sharoit yaratish lozimligini aytadi. Beruniy: <<Bola xulqini mo'tadillikda saqlashga alohida e'tibor berish kerak, bunga esa bolani qattiq g'azablanish, qo'rqish, xafalik va uyqusizlikdan saqlash orqali erishiladi>>, - degan fikrni bildiradi. Bolalarning yoqtirgan narsasini topib berishga va sevmagan narsasini ko'zidan uzoqlashtirishga doimo tayyor bo'lib turish kerak. Bu ishning ikki tomonlama foydasini, bir tomondan – bolaning ruhiyatiga foyda qilishi va bora-bora unga xushxulqlik odat bo'lib qolishini ko'rsatadi. Aks holda yomon xulq turli mijoz buzilishini keltirib chiqarishini aytib o'tadi. Masalan, g'azab kuchli qizdiradi, qayg'u kuchli ozdiradi, xafsalasizlik nasfoni quvvatni bo'shashtirib mijozni balg'amlikka moyil qiladi. Ikkinchidan, xulqning mo'tadilligi natijasida ham nafas, ham badan sog'lom bo'ladi. Demak, xulq mo'tadilligi bilan odob-axloq tarbiyasini amalga oshirish va bolalarda yaxshi xulqni tarbiyalash mumkinligi, bu bilan ularda mehr-muhabbat hislari ham shakllanib borishini ta'kidlab o'tadi.

Oilaviy munosabatlar masalalariga oid o'zining diqqatga sazovor qarashlari bilan farqlanib turuvchi Sharq mutafakkirlaridan yana biri Abu Ali ibn Sinodir (980-1037). Ibn Sinoning pedaagogik va psixologik qarashlari ijtimoiy asosda qurilgan bo'lib, u bola tarbiyasida umuminsoniy tamoyillarning qo'llanilishini yoqlab chiqib, ota-onalar bolani qattiq tana jazosidan ko'ra, shaxsiy ibrati orqali tarbiyalashi samaraliroq ekanligini uqtiradi.

Ibn Sino "Qonun-fit-Tibb" asarida yosh bolalarni tug'ilganidan boshlab tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor bberadi. Bola tug'ilganidan boshlab oyoqqa turguncha ma'lum tartibda tarbiyalanib borishi lozim. Bu – o'z vaqtida ovqatlantirish, cho'miltirish, yo'rgaklash kabilardan iborat. Bularni ham ma'lum qoidalar asosida amalga oshirish darkor. Bola tabiatini mustahkamlashdagi muhim vositalar – asta-sekin tebratish, musiqa eshittirish, ashula aytishdan iborat bo'lib,

ular tartib bilan amalga oshirilsa, bola yaxshi uhlaydi. Tebratish uning tanasiga, musiqa uning ruhiyatiga orom baxsh etadi. Ibn Sino yosh bola tarbiyasini turli sharoitda ma'lum izchillik va tartib bilan olib borish haqida onalarga maslahatlar beradi.

Shuningdek, bu asarda otalarning ham burch va vazifalari belgilab beriladi. Bola balog'atga yetguncha ota o'z vazifasini bajarib borishi kerak. Avvalambor, otaning majburiy vazifalaridan bir o'z farzandiga yaxshi nom berishdir. Bolani emizish davri tugab, mustaqil ovqatlanish davri boshlanishi bilan ota uning axloqiy tarbiyasiga kirishuvi zarur. Maqsadga erishish uchun tarbiyada o'rni bilan bolani maqtashy, jazolash ham kerakligini ko'rsatib o'tadi.

Shunday qilib, Sharq mutaffakkirlarining shaxsning kamoli, undagi sog'lom qarashlar, o'smir ma'naviyati va dunyoqarashining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari sifatida undagi iymon va insof, aql-zakovot va farosat, e'tiqod va diyonat kategoriyalari ilgari surilgan. Bularning ta'sirida shakllangan insoniy fazilatlar esa shaxs komilligining omillaridandir.

Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, Respublikamizda o'smirlik davri muammosini ilmiy tadqiq qilish masalasiga mustaqillik yillarida yanada e'tibor ortdi va bu borada muayyan muvaffaqiyatlar qo'lga kiritildi.

O'zbekistonlik olimlarning asosiy tadqiqot yo'nalishlari ham hozirgi davrda har tomonlama rivojlangan yetuk shaxsni tarbiyalashga qaratilgan.

B.R.Qodirovning ilmiy tadqiqot faoliyatlari maktab o'quvchilari, o'smirlar shaxsini o'rganishda, ularning individual xususiyatlarini kompleks tadqiqot qilishda alohida o'rni tutadi. Professor B.R.Qodirov tadqiqotlarida shaxsning shakllanish jarayonida faoliyatning o'rni, atrof-muhit va ota-onaning ta'siri masalasi yoritiladi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, nosog'lom muhit va faoliyatning noto'g'ri yo'naltirilishi shaxs xulqida salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

E.G'.G'oziyev o'z tadqiqotlarida tarbiyasi qiyin o'smirlar psixologiyasi, tarbiyasi qiyinlikni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik omillar hamda o'smirlar bilan ishlashning psixologik masalalari ilmiy jihatdan tahlil qiladi.

E.G'.G'oziyevning fikriga ko'ra, o'quvchilarni bo'sh vaqtlarini to'g'ri taqsimlash va uni samarali o'tkazishga yordam berish, bolalarni tashqari vaqtlarda iloji boricha turli xil to'garaklarga, ijtimoiy foydali faoliyatlarga yo'naltirish bolalar va o'smirlar o'rtasida turli zararli odatlarga o'rganishga oldini olishda muhimdir deb ta'kidlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ismailovich A. S. PROBLEMS OF IMPROVING PSYCHOLOGY OF HEALTHY LIFESTYLE OF UZBEK FAMILY //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – №. 1. – C. 313-318.
2. Saidov A. SOCIAL PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF THE FORMATION OF A CULTURE OF A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B7. – C. 867-871.
3. Sharifjon To'lqin o'g A. et al. TA'LIM-TARBIYA TIZIMI VA O'QITUVCHILAR FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING AHAMIYATI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 57-60.
4. Azamat, S. (2022). On The Basis Of National Values To Raise A Healthy Generation In The Family. Journal of Positive School Psychology, 6(10), 2417-2420.
5. Ismailovich S. A. Socio-Psychological Problems of Educating an Independent-Minded, Creative Person in the Educational Process //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. – 2021. – T. 2. – №. 12. – C. 4-7.